BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY-MA’NAVIY QADRIYATLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA TURIZMNING O‘RNI

Almamatova Movluda Rustam qizi - Guliston davlat pedagogika instituti tahririyati muharriri
Islamova Durdonaxon Rustamxon qizi - Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Zamon talabalariga javob beradigan pedagog kadrlarni tayyorlash, yetuk mutaxassis sifatida jamiyat rivojiga hissa qo‘shuvchi olim-olima sifatida yetishtirish bugunning dolzarb masalasiga aylanib ulgurdi. Shundan kelib chiqib maqola mazmunida ham bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-ma’naviy qadriyatlarni takomillashtirish hamda yirik iqtisodiy infratuzilmaga ega bo‘lgan ma’naviy qadriyatlarimiz va milliyligimizni aks ettiruvchi turizmning o‘rni haqida gap boradi. Kasbiy-ma’naviy tamoyillarning qadriyat sifatida aks etishi bilan birga aynan shu jarayonlarning turizmda namoyon etilishi sharoitlari turlichadir. Yuqoridagi tushunchalar yuzasidan ushbu maqolada ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. O‘qituvchi, kasbiy qadriyatlar, ma’naviy qadriyatlar,qadriyat, turizm, akmeologik yondashuv, ijtimoiy turizm, turizm psixologiyasi

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-ma’naviy qadriyatlarni takomillashtirishda turizmning o‘rni haqida so‘z yuritilganda albatta, kasbiy-ma’naviy qadriyatlar kabi tushunchalarga to‘xtalib o‘tmoq lozim. Negaki, ushbu qadriyatlarni shakllantirishda bevosita va bilvosita ta’sir etuvchi omillar mavjud bo‘lib, ularning biri sifatida aynan, turizmi, sayohatni qo‘sha olamiz. Shuningdek, kasbiy rivojlanishni uzluksiz ta’lim, qayta tayyorlov, o‘quv kurslari hamda malaka oshirish darslari orqali amalga oshirishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 17-yanvardagi 25-son qaroriga ILOVA tarzda berilgan Nizomga muvofiq, xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish, ulardagi kasb mahorati va malaka saviyasining doimiy o‘sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy talablarga muvofiq qayta tayyorlash va muntazam ravishda malaka oshirib borishning samarali mexanizmlarini joriy etish asosida mazkur xodimlarning yuqori saviyadagi uzluksiz kasbiy tayyorgarligini ta’minlashga yo‘naltirilgan [1] chora-tadbirlar yo‘lga qo‘yilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-ma’naviy qadriyatlarning takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida:

- Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-ma’naviy qadriyatlarni turizm orqali rivojlantirishda turistik ijtimoiy muhitning yaratilishi;

- Turizm jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-ma’naviy qadriyatlarini shakllantiribgina qolmasdan, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini singdirish, qobiliyatlarini rivojlantirish, yangi bilimlarni o‘zlashtirish, o‘z ustida ishlash hamda kreativ fikrlashga undash;

- Bo‘lajak o‘qituvchilarning individual kasbiy-ma’naviy qadriyatlarini rivojlantirishda mahoratini shakllantirish;

- Turizm jarayonida ilg‘or pedagogik qarashlar asosida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan xabardor bo‘lish hamda media savodxonlikni oshirishdan iborat.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-ma’naviy qadriyatlarni takomillashtirishda aynan turizmning ta’sir etish darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Sababi, turizm bo‘lajak o‘qituvchidagi har qanday kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishga erkin muhit yaratadi. O‘qituvchidagi kasbiy-ma’naviy tamoyillarning qadriyat darajasiga ko‘tarilishi hamda o‘rganilishi ushbu yoritilajak tushunchaning naqadar muhim ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi. Turizm orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-ma’naviy qadriyatlarini takomillashtirishda integratsiya mavjud bo‘lib, ushbu integratsiya ijtimoiylashuv, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlar bilan ifodalanadi. Jumladan, pedagogik kasbiy qobiliyatlarning namoyon bo‘lishi, ruhiy muvozanatlashgan ijtimoiylashgan shaxsning kamol topishi jamiyatimiz rivoji uchun malakali kadr yetishib chiqishida ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-ma’naviy tamoyillarning qadriyat sifatida aks ettirilishid, qadriyat-qadr tushunchalarni ifodalamoq lozim. Qadriyat – inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha [3] hisoblanadi. Qadriyat turli sohalarda xilma-xil ma’noda qo‘llanadi. Qadriyat so‘zining turfa xil ma’noda ishlatilishi unga berilgan ta’riflarning turlicha bo‘lishiga olib kelgan. Bo‘lajak o‘qituvchi egallashi lozim bo‘lgan va talab etiladigan omillarning biri sifatida kasbiy-ma’naviy qadriyat tushunchasi yotadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-ma’naviy qadriyatlarni takomillashtirishda turizmning o‘rni:



Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-ma’naviy ijodkorlikni rivojlantirishda turizm tizimining markaziy bo‘g‘ini sifatida samarali ijodiy faoliyatga qobiliyatlilikni aks ettiruvchi kreativ tarkibiy qism aks etadi [4. 592]. Aynan kreativlikni rivojlantirish akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning bosh maqsadlaridan biridir. Pedagogik ijodkorlikning rivojlanishi xilma-xil qobiliyatlarning aks etishi bilan bog‘liqdir. Akmeologik qobiliyatlar insonning hayoti-faoliyati jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi, biroq ularning aynan jadal rivojlanishi avtopsixologik kompetentlikning rivojlanishi natijasida sodir bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-135-son qarorining 4a-ilovasiga muvofiq, 2023-yilda turizm sohasidagi resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hamda mavjud muammolarni tezkor hal etish bo‘yicha “YO‘L XARITASI” [2] da, aynan bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagoglar va tibbiyot xodimlari uchun ichki turizm yo‘nalishi bo‘yicha alohida dastur tasdiqlab, ularning yurtimiz bo‘ylab sayohati va dam olishlarini tashkil qilish borasida ham amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo‘lib, Oliy ta’lim tashkilotlariga biriktirilgan hududlarning turistik salohiyatini oshirish yuzasidan 2023-yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash hamda Vazirlik tizimidagi kollej va texnikumlarda sifatli ta’lim berish maqsadida turizm, mehmonxona, umumiy

ovqatlanish va madaniy meros sohalarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning nufuzli ta'lim tashkilotlarida malakasini oshirishqa qaratilgan istiqbolli rejalar asosida ishlab chiqilgan yo‘l xaritasiga bog‘li davlat tashkiloti xodimlari ham ichki turizmga jalb etilishi ko‘zda tutilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad aholi o‘rtasida ichki turizmni rivojlantirish bilan birga sayyohlarni jalb qilishdan iborat. Aynan, shu jarayonlar mobaynida ham bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-ma'naviy qadriyatlarini turizm orqali takomillashtirishga zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 17-yanvardagi 25-son qaroriga ilova

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-135-son qarorining 4a-ilovasi

3. http://sayfiddin.oyina.uz/uz/teahause/2692

4. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. B– 592